

DARS №7



Media
sabak

MAVZU:

**TARMOQQDAGI
HAVFSIZLIK**

Internetdagi havfsizlikning asosiy qoidalari: HECHQACHON

Hech qachon ota-onangiz bilan maslahatlashmay turib begona insonlarga rasmlaringizni yubormang.

Hech qachon begona insonlar elektron pochtingizga yuborgan fayllarni ochmang. Bunday fayllarda virus bo'lishi va kompyuteringizga shikast yetkazishi mumkin.

Hech qachon kattalarning kuzatuviziz Internetda tanishgan insonlar bilan uchrashmang. Ular o'zlarining aslida kim ekanliklarini aytmasliklari mumkin. Faqat jamoat joylarida uchrashing.

Hech qachon Internetda tanishgan insonlarga telegon raqamingizni, uy manzilingizni yoki qaysi maktabda o'qishingizni ota-onangizning ruxsatisiz aytmang.



Internetdagi havfsizlikning asosiy qoidalari: HAR DOIM

Har doim yodda tuting!
Agar tarmoqda
kimdir sizga real hayotga
to'g'ri kelmaydigan
darajada yaxshi narsani
taklif qilsa, buni yolg'on
deb hisoblayvering.

Har doim parolingizni
sir tuting, uni
hech kimga
aytmang.

Kompyuteringizga bepul
o'yin yoki fayllarni
yuklashdan oldin ehtiyot bo'ling.
Ularni yuklash
orqali siz "havfli hududlarga
kirib ketishingiz,
viruslar yoki josus
dasturlarni yuklab
olishingiz mumkin.

Har doim Internetdan
foydalanishdan
avval ota-onangizdan
ruxsat oling



Virtual olamda menga qanday zarar yetkzishlari mumkin?

Virtual hayotda ular mendan
nimani o'g'irlashi mumkin?

*Ko'pincha ular insonlarning
shaxsiy ma'lumotlarini
o'g'irlashadi.*



Shaxsiy ma'lumotlar – bu, insonning ismi, familiyasi, telefon raqami, oilaviy ahvoli, manzili haqidagi barcha ma'lumotlar.

Bunday ma'lumotlar firibgarlar, reklama beruvchilar, yangilik agentliklari va boshqalar uchun katta qiymatga ega.



Nima uchun kompaniyalar bizning shaxsiy ma'lumotimizga muhtoj?

Bizga yoqqan mavzularni biz "like" bosish orqali belgilab qo'yamiz



Kompaniyalar bizga nima qiziq yoki nima yoqishini bilib olishadi



Kompaniyalar bizni qiziqtirgan tovarlar reklamasini bizga ko'rsatishadi



Biz bu tovarlar yoki xizmatlarni sotib olamiz

Ba'zida ijtimoiy tarmoqlarda bizga o'yin shaklidagi testlardan o'tib ko'rishni va shu orqali sevimli filmingiz, multfilmingiz yoki o'yiningizdan qaysi qahramon ekanligingizni bilib olish mumkinligini taklif etishadi.

Bu testda ishtirok etish uchun boshqa saytga kirishingiz kerak bo'ladi va shu yo'l bilan sizning ma'lumotlaringiz saqlanib qoladi. Ba'zida hattoki parollar ham ularda saqlanib qolishi mumkin.

Test

Siz qaysi multfilm qahramonisiz?



Multfilm tomosha qilishni kattalar va bolalar – hamma birdek yaxshi ko'radi. Har birimizning sevimli multfilm qahramonlarimiz bor. Sizing harakteringiz qaysi multfilm qahramoniga o'xshashini bilishni xohlaysizmi? Buning uchun bir nechta savollarga javob berish kifoya.

TEST TOPSHIRISH ▶

Siz qaysi davrda tug'ilishingiz kerak edi?



Noto'g'ri davrda tug'ilgan " degan ibora sizga mos keladimi? Bu oson testni topshiring va siz ko'proq qaysi davrga mos kelishingizni bilib oling.

TEST TOPSHIRISH ▶

Big Data (Katta ma'lumotlar)

Bu bizning hatti harakatlarimizni o'qiy oladigan zamonaviy tizimlar. Big Data bizning hatti harakatlarimizni tahlil qiladi va bizga aynan nima kerakligiga qarab kerakli narsalarni ko'rsatadi.



Big Data biz bosgan “like”larni kuzatib boradi va shu asosida bizga kerakli postlarni taklif qiladi.

Biz o'z lentamizda avvolroq “like” bosgan mavzularga aloqador mahsulotlarni ko'rishimiz mumkin.

Reklamalar ham aynan bizning qiziqishlarimizga asoslangan holda ko'rsatiladi.



Kiberbulling

Kiberbulling - bu Internetdagi bosim va tazyiq, masalan, fotosuratlar, videolarni joylashtirish, yoqimsiz voqealarni yozish.



Agar sizning rasmingizni fotoshop orqali yaratishgan bo'lsa va yolg'on ma'lumot berishsa. Agar sizga qo'rqituvchi xabarlarni yuborishsa.

NIMA QILISH KERAK?

Bunga yo'l qo'ymaslik uchun siz bor siringizni to'kib solishingiz shart emas.

Asosiysi: hotirjam munosabat!
Chunki bu ishni qilgan insonlar faqat sizning asabiy bo'lishingiz va qo'rqishingiz uchun qilishadi holos.
Albatta bu haqida kattalarga aytishingiz kerak, ular bu borada yordam bera olishadi.



Xulosalar:

Internet ta'lim olish , hordiq chiqarish yoki do'stlar bilan muloqot qilish uchun ajoyib vosita bo'lishi mumkin. Ammo, real hayotdagi singari tarmoq ham havfli bo'lishi ehtimoldan holi emas.

Shaxsiy ma'lumotlaringizni kimga taqdim qilayotganingizni diqqat bilan tekshiring.